DOI

Azimov A.O.
Mamajonov I.O.
O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi

MILLIY RUHNING JAMIYAT BILAN BOG‘LIQLIGI

Annotatsiya: *mazkur maqolada inson ruhiyati bilan bog‘liq bo‘lgan, mustahkam iroda, shijoat va fidokorlikni aks ettiruvchi milliy ruhning asl mohiyati keltirilgan. Shu bilan birga Milliy ruhning jamiyat bilan bog‘liqligi tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *milliy ruh, xalq, millat, jamiyat, urf-odat, qadriyat, tuyg‘u.*

Azimov A.O.
Mamajonov I.O.
Academy of the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan

THE CONNECTION OF NATIONAL SPIRIT WITH SOCIETY

Abstract: *this article presents the true essence of the national spirit, which is related to the human psyche and reflects strong will, courage and selflessness. At the same time, the connection of the national spirit with the society was analyzed.*

Key words: *national spirit, people, nation, society, tradition, value, feeling.*

Milliy ruh – bu millatning qudratli kuchi hisoblanib, millatning ichki ruhiy holati, kechinmalari, ma’naviy dunyosi, his-tuyg‘ulari, maqsad va maslagi hamda, kayfiyatini ifoda etuvchi tuyg‘ular majmuyidir. Yer yuzida xalqlar borki har bir xalqning o‘ziga xos ma’naviy olami, an’analari, azaliy qadryatlari va urf-odatlari bor. Milliy ruh ham mana shu uzoq tarixiy jarayonlar mobaynida shakillangan tuyg‘udir. Bu tuyg‘u millatning taraqqiyotini hayotbaxsh manbasi bo‘lib xizmat qiladi. Davlatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotida, ma’naviy va moddiy omillar qanchalik zarur bo‘lsa, Milliy ruh ham millat taraqqiyotida mana shunday zarur omildir.

Milliy ruhni anglab yetmoqlik ayni vaqtda jamiyatda mavjud bo‘lgan bir qator muommolarni hal etishda, shu bilan birga millatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi jarayonlarning o‘ziga xosligini aniqlash va ularga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga keng imkoniyat yaratadi. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak milliy ruhni shakillanishida ob’ektiv va sub’ektiv omillar ta’sirida asta-sekinlik bilan shakillanib kelgan.

Ob’ektiv omillar sirasiga o‘sha millat yashayotgan hududning maydoni, joylashuvi va hayot kechirish uchun qulayligi, tabiiy shart-sharoitlari, aholisining soni, yer osti va yer usti moddiy boyliklari, hayvonot olami, o‘simlik olamining

https://wordlyknowledge.uz

xilma-xilligi, suv manbalari, quyoshli va yomg‘irli kunlari, yil fasillari kabi vahokazolarni kiritishimiz mumkin. Sub’ektiv omillarga millatning savodxonlik darajasi, odamlarning o‘zaro bir-birlari bilan munosabatlarini o‘rnata olishi, mamlakat ichida turli xil millatga mansub odamlarning inoqligi, dinlar, ijtimoiy guruhlar va tabaqa vakillarining ahil hamkorligini va birodarlarcha hayot kechirishini ifodalaydi.

Xalqning ob’ektiv omillari mavjud bo‘lgani bilan, ammo xalqning o‘zi tarqoq bo‘lsa, uyushmagan va hamjihat bo‘lmasa, shu davlat, xalq qashshoq va tarqoq, qoloq bo‘lib qolaveradi. Bu esa millatning kelajagi uchun ham katta ta’sirini ko‘rsatadi.

Hozirgi kundagi eng rivojlangan davlatlarning, rivojlanish tarixiga bir nazar solsak, taraqqiyotga erishganining sababida ob’ektiv va sub’ektiv omnillarning uyg‘unlashu natijasini ko‘ramiz. Xalqning uyg‘unlashuvini, tashabbuskorligini, tadbirkorligini barcha sohalarda topqirligini va bor kuch g‘ayrati bilan ishga kirishganini, hayot surati va milliy ruhini yuksak darajada ekanligini korishimiz mumkin.

Ayni damda jamiyat tarqqiy etgani sari sub’ektiv omillarning ahamyati kundan kunga ortib bormoqda. Taraqqiyot cho‘qqisiga chiqib borayotgan davlatlarning, zamonaviy ilm-fan, texnika va texnologiyalariga tayangan holda, yer yuzidagi joylashuvi noqulay va yashash uchun qiyin bo‘lgan joylarda, misli ko‘rilmagan loyihalarni amalga oshirib, insoniyat uchun manfaatdor bo‘lgan ishlarni qilayotgani yaqqol misol bo‘la oladi. Masalan, ko‘p yillar oldin yashash uchun noqulay bo‘lagan Dubay shaxri, hozirgi kunda odamlarning orzusiga aylangan, yoki o‘z yer osti boyliklariga ega bo‘lmagan Yaponiya eng ilg‘or sanoati, texnikasi va texnologiyasi bilan dunyoda eng raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarmoqda. Bu kabi ko‘plab mamlakatlarni misol keltirishimiz mumkin, masalan, Janubiy Koreya, Xitoy, Islandiya davlatlari ham mana shunday natijalarga erishmoqda. Bu natijalarga boshqa bir qancha omillar qatorida taraqqiyotga yo‘naltirilgan milliy dunyoqarashning asosi bo‘lgan milliy ruhning kuchliligi yotadi.

Bizni mustaqil davlatimizning 1917-1990 yillarda milliy ruhi anchagina sustlashib, zaiflashib qolgan edi. Buning sababi barchamizga ayon bo‘lgan mustamlakachilik edi. Bu davrda o‘zbek xalqining milliy an’ana va qadryatlari cheklanib qo‘yilib, o‘zligini anglashga bir qator to‘siqlar qo‘yilgani. Buning natijasida o‘lkamiz ko‘p jihatdan orqada qolib ketdi. Xalqimiz orasida o‘z millati va milliy ruhiga nisbatan befarqlik xis-tuyg‘ulariga ega shaxslar ko‘payib ketdi.

Mustaqillikga erishganimizdan so‘ng amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohot va ijobiy o‘zgarishlar tufayli har bir inson o‘zligini anglashga sharoit yaratildi, erkin va farovon hayot tarzi yo‘lga qo‘yildi shu bilan birga esa xalqimizga xos bo‘lgan “Milliy ruh” inson va jamiyatning taraqqiyotini hal qiluvchi kuchga aylantirildi. Mamlakatimiz turmush-tarzini, hayotini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish, milliy ruhni esa yangi pog‘onaga ko‘tarish mustaqilligimizning eng muhim va dolzarb vazifalaridan biriga aylandi.

https://wordlyknowledge.uz

Milliy ruh – millatning taraqqiyotni, uning kelajagini belgilashda va xalqning tinch va farovon yashashida eng muhim omil ekanligini ayni damda ko‘rib turibmiz. Biz bu tuyg‘ularsiz ham iqtisodiy va ma’naviy jihatdan rivojlana olmaymiz. Hoh mamlakat bo‘lsin hoh inson. Har bir fuqaro yoshu, qari bo‘lsin barchasi birday milliy ruhini saqlab qolishi va uni o‘stirishda o‘z xissasini qo‘shmog‘li lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Musurmonov. O. Olia ma’naviyati-milliy g‘urur: (o‘quv qo‘llanma). – T.: “O‘qituvchi”, 1999. – 200 b.
2. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati / O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. – T.: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2016. – 448 b.
3. Quronov Muhammad. Milliy tarbiya/M. Quronov Respublika ma’naviyat va ma’rifat kengashi. Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi. – T.: Ma’naviyat, 2007. – 240 b.

WORDLY
KNOWLEDGE

https://wordlyknowledge.uz